TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2021- YIL YANVAR-MAY*

Sanoat statistikasi bo‘limi
Tel.: (71) 202-86-66

# Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-may)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha, 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 22857,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning-may yanvar oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,7 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 87,8 %ni tashkil etdi.







***B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *%da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 1,3 %ga hamda kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 32,6 %ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,7 %ga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 2,7 %ga o‘sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi -** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *%da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 %ini tashkil etdi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

**Ko‘mir**




**Kaolin**




**Tabiiy gaz**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ko‘mir, ming t. | 1286,6 | 1737,2 | 450,6 |
| Chaqiq tosh, ming t | 141,428 | 204,032 | 62,604 |
| Shag‘al , ming t. | 30,159 | 2,010 | -28,149 |
| Kaolin, ming t. | 78,944 | 96,063 | 17,119 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,2 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,8 %ini tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoq 0,9 %ni (2020- yilning yanvar-may oylarida - 1,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 9,8 %ni (12,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 55,7 %ni (50,9 %) va quyi texnologiyalisi – 21,4 %ni (21,0 %) tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**quyi texnologiyali**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,1 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 47,9 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,7 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,1 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,1 % (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,3 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 57,364 ming dona avtomobil dvigitellari ishlab chiqarilib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 39,1 %ga kamaygan. Aksincha, 29,804 mln. litr pivo mahsulotlari (102,4 %), 11,135 ming tonna kalava ip (117,7 %), 146,793 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (108,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Pishloq va tvorog**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



**Sement**




**Paxta chigiti**




**Kalava ip**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 135,850 | 146,793 | 10,943 |
| Paxta tolasi, ming t.. | 10,918 | 27,871 | 16,953 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 3,326 | 1,756 | -1,57 |
| Portlandsement, ming t. | 1693,735 | 1943,560 | 249,825 |
| Kultivatorlar,dona. | 473 | 204 | -269 |
| Avtomobil dvigitellari, ming dona | 94,208 | 57,364 | -36844 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, etil spirti (101,0 %) mahsulotida o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Shuningdek, ammoniy nitrat (2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 13,6 %) mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida pasayish kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-may oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,9 %ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,7 %ga o‘sishi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 6959,6 | 6229,0 | -730,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 1853,7 | 1801,2 | -52,5 |
| **Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz,** *ming kub. m.* | 126647,0 | 126466,0 | -181 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln.so‘m** | 15785,6 | 21639,0 | 5853,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlar, mln.so‘m** | 41186,0 | 55251,5 | 14065,5 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarida 32,6 %ga pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5534,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 12,0 %ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 18,5 %ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino, aroq va pivo mahsulotlari 11,2 %ni (2021- yil yanvar-may oylarida 15,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniga to'g'ri kelib 17,6 %ni, Chirchiq shahri 11,3 %ni, Qibray tumani 10,2 %ni, Ohangaron shahri 8,3 %ni, va Angren shahri 7,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bekobod (141,9 %), Chirchiq (120,4 %) shahlarida hamda Zangiota tumanida (128,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*2021- yilning yanvar-may oylarida*



| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 5534.3 | 100.0 | 112.0 |

**Toshkent viloyati**



| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 76.8 | 1.4 | 125.7 |

**Nurafshon.**



| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 52.7 | 1.0 | 115.0 |

**Bo'ka**



| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 136.2 | 2.5 | 122.7 |

**Olmaliq**



| Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|
| 972.9 | 17.6 | 128.0 |

**Zangiota**

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Angren | 422.8 | 7.6 | 113.5 |
| Yuqorichirchiq | 228.1 | 4.1 | 103.3 |
| Bekobod | 91.3 | 1.6 | 141.9 |
| Quyichirchiq | 87.3 | 1.6 | 101.9 |
| Ohangaron | 459.0 | 8.3 | 94.2 |
| Qibray | 562.8 | 10.2 | 110.2 |
| Chirchiq | 625.1 | 11.3 | 120.4 |
| Parkent | 129.9 | 2.3 | 103.2 |
| Yangiyo'l | 123.8 | 2.2 | 86.4 |
| Piskent | 122.0 | 2.2 | 121.9 |
| Oqqo'rg'on | 226.4 | 4.1 | 149.4 |
| O'rtachirchiq | 169.0 | 3.1 | 106.5 |
| Ohangaron | 43.9 | 0.8 | 82.6 |
| Chinoz | 104.4 | 1.9 | 86.9 |
| Bekobod | 59.2 | 1.1 | 90.4 |
| Yangiyo'l | 275.5 | 5.0 | 128.2 |
| Bo'stonliq | 152.5 | 2.8 | 90.4 |
| Toshkent | 412.6 | 7.5 | 102.4 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ohangaron shahriga to‘g‘ri kelib, 12,5 %ni, shuningdek, Chirchiq shahrida 18,9 %ni, Qibray tumanida 5,1 %ni, Toshkent tumanida 9,3 %ni hamda Zangiota tumanida 8,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Bekobod (149,2 %) va Chirchiq shaharlarida (127,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 2504.8 | 100.0 | 106.4 |
| Nurafshon. | 47.9 | 1.9 | 125.1 |
| Bo'ka | 26.9 | 1.1 | 118.8 |
| Olmaliq | 90.4 | 3.6 | 114.4 |
| Zangiota | 212.5 | 8.5 | 88.8 |
| Angren | 159.8 | 6.4 | 106.2 |
| Yuqorichirchiq | 96.8 | 3.9 | 102.5 |
| Bekobod | 69.1 | 2.8 | 149.2 |
| Quyichirchiq | 47.4 | 1.9 | 103.5 |
| Ohangaron | 312.9 | 12.5 | 91.5 |
| Qibray | 128.8 | 5.1 | 98.3 |
| Chirchiq | 472.2 | 18.9 | 127.9 |
| Parkent | 49.5 | 2.0 | 110.3 |
| Yangiyo'l | 67.2 | 2.7 | 87.4 |
| Piskent | 25.8 | 1.0 | 90.5 |
| Oqqo'rg'on | 91.3 | 3.6 | 171.0 |
| O'rtachirchiq | 91.4 | 3.7 | 115.3 |
| Ohangaron | 22.2 | 0.9 | 80.8 |
| Chinoz | 55.2 | 2.2 | 86.2 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Bekobod | 29.8 | 1.2 | 89.8 |
| Yangiyo'l | 136.4 | 5.4 | 120.2 |
| Bo'stonliq | 39.1 | 1.6 | 81.5 |
| Toshkent | 232.3 | 9.3 | 102.5 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Zangiota tumaniiga to‘g‘ri kelib, 25,1 %ni, shuningdek, Qibray tumani 14,3 %ni, Ohangaron shahri esa 4,8 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bekobod (123,2 %), Olmaliq (143,2 %) hamda Angren (118,4 %) shaharlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 3029.5 | 100 | 117.0 |
| Nurafshon | 28.8 | 1.0 | 126.4 |
| Bo'ka | 25.8 | 0.9 | 111.2 |
| Olmaliq | 45.8 | 1.5 | 143.2 |
| Zangiota | 760.4 | 25.1 | 146.0 |
| Angren | 263.0 | 8.7 | 118.4 |
| Yuqorichirchiq | 131.4 | 4.3 | 103.9 |
| Bekobod | 22.2 | 0.7 | 123.2 |
| Quyichirchiq | 40.1 | 1.3 | 100.5 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Ohangaron | 146.0 | 4.8 | 100.5 |
| Qibray | 434.0 | 14.3 | 114.3 |
| Chirchiq | 152.9 | 5.0 | 101.8 |
| Parkent | 80.5 | 2.7 | 99.3 |
| Yangiyo'l | 56.6 | 1.9 | 85.2 |
| Piskent | 96.4 | 3.2 | 134.9 |
| Oqqo'rg'on | 135.1 | 4.5 | 137.6 |
| O'rtachirchiq | 77.6 | 2.6 | 97.8 |
| Ohangaron | 21.7 | 0.7 | 84.4 |
| Chinoz | 49.1 | 1.6 | 87.5 |
| Bekobod | 29.4 | 1.0 | 91.0 |
| Yangiyo'l | 139.1 | 4.6 | 137.0 |
| Bo'stonliq | 113.3 | 3.7 | 93.9 |
| Toshkent | 180.5 | 6.0 | 102.4 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6255,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 21,0 %ni tashkil etdi.

# Toshkent viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 29857.9 | 100.0 | 106.7 |
| Nurafshon. | 380.4 | 1.3 | 80.2 |
| Bo'ka | 170.7 | 0.6 | 175.4 |
| Olmaliq | 13095.7 | 43.9 | 118.0 |
| Zangiota | 1893.7 | 6.3 | 94.0 |
| Angren | 2086.6 | 7.0 | 102.0 |
| Qibray | 109.5 | 109.5 | 109.5 |
| Bekobod | 3060.6 | 10.3 | 103.7 |
| Quyichirchiq | 274.3 | 0.9 | 124.5 |
| Ohangaron | 1264.1 | 4.2 | 105.3 |
| Parkent | 150.2 | 0.5 | 101.1 |
| Chirchiq | 1970.1 | 6.6 | 100.2 |
| Piskent | 223.8 | 0.7 | 118.5 |
| Yangiyo'l | 225.8 | 0.8 | 101.2 |
| O'rtachirchiq | 295.7 | 1.0 | 105.2 |
| Oqqo'rg'on | 313.1 | 1.0 | 108.6 |
| Chinoz | 213.6 | 0.7 | 113.6 |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 145.5 | 0.5 | 101.0 |
| **Ohangaron** | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 497.5 | 1.7 | 101.0 |
| **Yuqorichirchiq** | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 200.1 | 0.7 | 107.5 |
| **Bekobod** | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 627.1 | 2.1 | 105.2 |
| **Toshkent** | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 479.6 | 1.6 | 97.4 |
| **Bo'stonliq** | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 516.6 | 1.7 | 117.8 |
| **Yangiyo'l** | | |

## Toshkent viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati, %da



Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Bo‘stonliq (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 97,4 %) va Qibray (94,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.

**Toshkent viloyatida jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %da**

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 43,9 %i), Bekobod (10,3 %), Chirchiq (6,6%), Angren (7,0%) va Ohangaron (4,2 %) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Ohangaron (0,5 %) hamda Bekobod (0,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (97974,7 ming so‘m), Ohangaron (32311,5 ming so‘m) va Bekobod (31518,7 ming so‘m) shaharlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (10016,0 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1856,5 ming so‘m bo‘lgani holda, Ohangaron shahrida – 11731,3 ming so‘mni, Zangiota tumanida – 4988,6 ming so‘mni, Qibray tumanida – 2778,8 ming so‘mni, Chirchiq shahrida 3833,4 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylarida, ming so‘m*

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | 10 016.0 | 1 856.5 |
| Nurafshon | 7 363.5 | 1 486.4 |
| Bo'ka | 1 335.9 | 412.3 |
| Olmaliq | 97 974.7 | 1 019.0 |
| Zangiota | 9 709.7 | 4 988.6 |
| Angren | 10 882.6 | 2 205.0 |
| Qibray | 8 753.7 | 2 778.8 |
| Ohangaron | 32 311.5 | 11 731.3 |
| Quyichirchiq | 2 486.8 | 791.7 |
| Bekobod | 31 518.7 | 940.0 |
| Parkent | 952.4 | 823.9 |
| Chirchiq | 12 080.9 | 3 833.4 |
| Piskent | 2 190.2 | 1 193.6 |
| Yangiyo'l | 3 639.9 | 1 996.5 |
| O'rtachirchiq | 2 072.0 | 1 184.3 |
| Oqqo'rg'on | 2 939.2 | 2 124.6 |
| Chinoz | 1 565.1 | 765.1 |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 1 499.7 | 452.9 |
| **Ohangaron** | |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3564.2 | 1634.3 |
| **Yuqorichirchiq** | |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 1 253.0 | 370.8 |
| **Bekobod** | |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3415.0 | 2247.3 |
| **Toshkent** | |

| anoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 800.3 | 890.1 |
| **Bo'stonliq** | |

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 458.4 | 1 311.1 |
| **Yangiyo'l** | |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-may oylarida, %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5140,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,2 %ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (65,0 %), Parkent (75,8 %), Chinoz (51,7 %), Ohangaron (72,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Olmaliq (6,6 %), Bekobod (2,1 %) va Chirchiq (18.3 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2021- yil 1- iyun holatiga koʻra)*

Bugungi kunda viloyatda 9064 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 1296 tasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 14,3%) Zangiota tumaniga, 836 tasi (9,2 %) Qibray tumaniga, 785 tasi (8,7 %) Toshkent tumaniga, 450 tasi (4.9 %) Chirchiq shahriga, 452 tasi (5.0 %) Angren shahriga  toʻgri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 753 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 58 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 7,7 %) Qibray tumanida, 72 tasi (9,6 %) Zangiota tumanida, 30 tasi (6,5%) Toshkent tumanida, 24 tasi (5,2 %) Yangiyo'l tumanida, 41 tasi (5,4 %) Yuqorichirchiq tumanida tashkil etildi